Sirdaryo viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026-yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumot

I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
II.ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
III.UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
IV.METAMA'LUMOTLAR
V.ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-oktabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 413 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 6 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 407 tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 6 602,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 121,0 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 571,6 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 141,2 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 6 031,2 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 119,4 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 646,5 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 130,8 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati *(% da)*



Mavzuga doir havola: Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati (oylik)

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
(ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-oktabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni 1 346 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 8 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 338 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2026-yilning yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 8 791,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 114,0 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 8 272,8 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,9 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 94,1 % ni tashkil qildi.


Ulgurji savdo hajmi dinamikasi *(mlrd so'm)*



Mavzuga doir havola: Ulgurji savdo hajmi (oylik)

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori o‘sish sur’ati Xovos 122,1 %) Sirdaryo (122,0) va Boyovut (115,7 %) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o‘sish sur’atlari *(foizda)*




Mavzuga doir havola: Ulgurji savdo hajmi o‘sish sur’ati (oylik)

III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026-yil 1-oktabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 874 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 873 tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 4 571,9 mlrd so‘mga yetdi. 2025-yilning mos davriga nisbatan 125,3 % ga o’sdi. Bunda savdo aylanmasining 94,1 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o‘sish sur’atlari *(foizda)*



IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi–2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

Ulgurji savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)
Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati (hududlar kesimida, oylik)
Chakana savdo aylanmasi hajmi (hududlar kesimida, oylik)
Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati (hududlar kesimida, oylik)
Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)
Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati (hududlar kesimida, oylik)
Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)
Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'ati (hududlar kesimida, oylik)

Chop etishga mas'ul: Xizmatlar va savdo soxasi statistikasi bo 'limi	**Bo'lim boshlig'i:** A.Qurbonov Tel: +672367000 (2040)	**Ijrochi:** O.Xazratqulov Tel: +672367000 (2040) e-pochta: info@sirstat.uz	**Manzil:**Guliston sh., Birlashgan ko'chasi,62